



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراس professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK RIVOJLANISHINING XORIJ TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ollokulova Feruza Mansurovna

doktorant

Termiz davlat universiteti

E-mail: ollokulovaf@tersu.uz

ORCID: 0009-0001-4427-1879

Annotatsiya. Maqolada davlat-xususiy sheriklikning investitsion faollikni oshirishdagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Davlat-xususiy sheriklikning nazariy-uslubiy asoslari, investitsiyalarni jalb etishdagi imkoniyatlari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Kanada va Yaponiyaning DXSh modellarining o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi. Olingan natijalar asosida O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish va infratuzilmaviy loyihalarni samarali moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: DXSh, investitsion faollik, infratuzilma loyihalari, konsessiya, SEM, investitsiyalar, risklarni taqsimlash, xususiy sektor, investitsion siyosat.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Оллокулова Феруза Мансуровна

докторант

Термезский государственный университет

E-mail: ollokulovaf@tersu.uz

ORCID: 0009-0001-4427-1879

Аннотация. В статье исследовано роль и значение государственно-частного партнерства в повышении инвестиционной активности. Рассмотрены теоретико-методологические основы ГЧП, его возможности в привлечении инвестиций и международный опыт развитых стран. В ходе исследования проанализированы модели ГЧП Великобритании, Франции, Германии, США, Канады и Японии. На основе полученных результатов разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по развитию государственно-частного партнерства, стимулированию инвестиционной активности и совершенствованию механизмов финансирования инфраструктурных проектов в Узбекистане.

Ключевые слова: ГЧП, инвестиционная активность, инфраструктурные проекты, концессия, SEM, инвестиции, распределение рисков, частный сектор, инвестиционная политика.

FOREIGN EXPERIENCE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP DEVELOPMENT AND OPPORTUNITIES FOR ITS ADAPTATION IN UZBEKISTAN'S PRACTICE

Ollokulova Feruza Mansurovna

doctoral student

Termez State University

E-mail: ollokulovaf@tersu.uz

ORCID: 0009-0001-4427-1879

Abstract. This article examines the role and significance of public-private partnerships in





enhancing investment activity. The theoretical and methodological foundations of PPPs, their potential for attracting investments, and the international experience of developed countries are analyzed. The study explores PPP models implemented in the United Kingdom, France, Germany, the United States, Canada, and Japan. Based on the findings’, scientifically grounded recommendations are proposed for improving public-private partnership mechanisms, stimulating investment activity, and enhancing the financing of infrastructure projects in Uzbekistan.

Keywords: PPP, investment activity, infrastructure projects, concession, SEM, investments, risk allocation, private sector, investment policy.

Kirish

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi xususiy sektorning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish, investitsiyaviy muhitni institutsional jihatdan takomillashtirish hamda infratuzilma rivojlanishini tizimli asosda jadallashtirish zaruratini oshirmoqda. Albatta bunday jarayonda davlat-xususiy sherikligi (DXSh) modeli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, kapital hajmi yuqori sohalarga xususiy investitsiyalarni jalb etish, resurslar taqsimotini optimallashtirish va davlat budjeti yukini maqbul darajada boshqarishga xizmat qiluvchi zamonaviy iqtisodiy instrument sifatida shakllanib bormoqda. Global iqtisodiy hodisalar - geoiqtisodiy beqarorlik, energetik o‘zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning transformatsiyasi, pandemiyadan keyingi iqtisodiy adaptatsiya va “yashil infratuzilma”ga bo‘lgan talabning ortib borishi - DXSh orqali investitsion faollikni jadallashtirish, risklarni qayta taqsimlash va davlatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar soni ortib bormoqda. Albatta buning zamirida sohaga doir qabul qilinayotgan hujjatlarning amaliyotga samarali tadbiriq etilayotganligini qayd etish kerak. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida[1] davlat-xususiy sheriklik mexanizmini yanada takomillashtirish, xususiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga keng jalb etish, DXSh loyihalarining institutsional va moliyaviy asoslarini mustahkamlash hamda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda DXSh portfelini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikning rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, DXSh loyihalarini moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, loyiha risklarini baholash va boshqarish amaliyotining yetarli darajada rivojlanmaganligi, institutsional salohiyatning ayrim yo‘nalishlarda takomillashtirilish kerak bo‘lgan muammolar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun davlat-xususiy sheriklikning investitsion faollikka ta’sirini ilmiy jihatdan baholash, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillarini aniqlash hamda xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat-xususiy sheriklikning nazariy-uslubiy asoslari, uning investitsion faollikni oshirishdagi o‘rni, DXSh loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi, risklarni taqsimlash tamoyillari hamda infratuzilmaviy loyihalarni boshqarish masalalari mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish, DXSh loyihalarining iqtisodiy natijadorligini baholash hamda ularni moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

AQSh yaqin tarixidagi yirik DXSh loyihalari tarkibida koinotni o‘rganish va o‘zlashtirish





bo'yicha amalga oshirilgan Space Shuttle kosmik kemasini yaratish loyihasi yetakchi o'rinni egallaydi. NASA tomonidan ishlab chiqilgan hamda Shimoliy Amerikaning Rockshell, Lockheed, Krysler va Martin Marietta kabi xususiy korporatsiyalari bilan hamkorlikdagi amalga oshirilgan ushbu muhandislik loyihasi 135 marta uchib, koinotda 1330 kundan ortiq vaqt o'tkazgan va yerni 21158 marta aylanib chiqishga yerishgan. Ekspertlar fikricha ushbu loyiha AQShning milliy iftixor manbai va biznes uchun fazoning ramziy ochilishi edi. Fikrimizcha, DXSh bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish va ishlab chiqish mexanizimi mavjud bo'lmaganda bunday tarixiy va olamshumul natijaga erishish murakkab kechar edi. Shuning uchun davlat, xususiy biznes uchun DXSh eng qulay va keng imkoniyatlar yaratib beruvchi mukammal tizim hisoblanadi [2]. Davlat-xususiy sheriklik davlat organi bilan xususiy sektor o'rtasidagi shartnomaviy kelishuvlar bo'lib, bozor raqobatbardoshligi sharoitida yo'llar, ko'priklar va boshqa ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini yaratish maqsadida xususiy sektorning faol ishtirok etishiga imkon beradi. Transport sohasida ushbu shartnomaviy munosabatlar xususiy sektor tomonidan loyihalash, moliyalashtirish, qurilish, uzoq muddat mobaynida foydalanish va iqtisodiy manfaatdorlikni amalga oshirish loyiha bo'yicha aksariyat risklarini o'z zimmasiga oladi, ushbu mexanizmdan foydalanganlik uchun to'lovlar, ijara to'lovi va infratuzilmani ijaraga berishdan olinadigan daromadlardan foyda oladi [3].

Jahon mamlakatlarida yashil iqtisodiyotni barpo etish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlarini oldini olish orqali barqaror moliyaviy rivojlanishga erishish uchun ekologik va toza texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturni amalga oshirish BMT tomonidan aniq missiyalar maqsadli ko'rsatgichlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etib kelmoqda. Iqtisodiyotga yashil innovatsiyalarni joriy etmasdan, ushbu maqsadlarga erishish murakkab hisoblanadi. Bunday sharoitda davlatlar tomonidan DXSh bo'yicha yashil loyihalarni moliyalashtirish va investitsiyalar kiritish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, jumladan jahonda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrash bo'yicha qilanayotgan ishlarning mantiqiy bir bo'lgi hisoblanadi [4].

Uzoq muddatli investitsiyalarni samarali jalb qilish mexanizmi hisoblangan davlat xususiy sheriklikni amalga oshirmasdan turib, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ijtimoiy-bozor infratuzilmasini yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish mumkin emas. Zamonaviy davlat boshqaruv yo'nalishlari va biznesni boshqarish iqtisodiyotning yetakchi va strategik tarmoqlarini ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bozor munosabatlari shakillanayotgan mamlakatlarda davlat va korporativ tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi [5].

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining kuzatilayotgan sekinlashuvi joriy tendensiyalari davlatlar investitsion imkoniyatlarini qayta baholash va istiqbolli investitsiya siyosatini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. DXSh davlatning iqtisodiyotga yo'naltiradigan investitsiya resurslarini kamaytirish bilan bir qatorda iqtisodiyotda yangi biznes sub'ektlarini paydo shakillanishiga zamin yaratadi. Shuning uchun DXSh infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda keng tarqalgan instrumentlaridan biri sanaladi. DXSh ikkala tomonlar uchun o'zaro manfaatli bo'lib, pirovardida aholi farovonligini oshirishiga qaratilgan [6].

Yu.Xadjayeva tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda DXSh bo'yicha investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish mexanizmi dastaklari o'rganilgan, tadqiqotchining fikricha, davlat-xususiy sheriklikning muhim afzalliklaridan biri loyihalarni aniq belgilangan bosqichlar asosida amalga oshirishdir. Ilk bosqichda loyiha tayyorlanadi, ikkinchi bosqichda loyiha tafsilotlari ko'rsatilgan holda, qayta ko'rib chiqiladi, uchinchisidan loyiha amalga oshiriladi, to'rtinchisida bajarilgan ishlar monitoringi amalga oshiriladi [7].

J.Tohirov tomonidan DXShning xususiy sektor va davlat manfaatlarini himoya qilishligi, byudjet daromadlarini oshirish bilan birlikda ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishdagi ahamiyati taxlil etilgan. Uning fikricha “davlat va xususiy sheriklikdan faqat xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar) bilan birgalikda davlat va aholi ham manfaatdordir [8].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va xulosalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki,





davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish orqali investitsion faollikni oshirish, infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni samarali amalga oshirish hamda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. DXSh loyihalari davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish, risklarni tomonlar o‘rtasida samarali taqsimlash va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, tarixiy va mantiqiy tahlil, guruhlash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Kanada va Yaponiyaning davlat-xususiy sheriklik sohasidagi institutsional mexanizmi, boshqaruv modellari va moliyalashtirish amaliyoti qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning DXSh tajribalari tahlili ko‘rsatishicha, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya va Kanada DXSh siyosatini aniq va markazlashtirilgan tarzda yuritadi. AQSh va Germaniyada esa federativ tizimda har bir hudud mustaqil siyosat yuritadi, buning esa o‘ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari ham bo‘lishi mumkin, deb hisoblaymiz. Birgina hududiy ehtiyojlarga moslashuvchanlik masalasini ko‘radigan bo‘lsak, har bir shtat (AQSh) yoki land (Germaniya) o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma ehtiyojiga qarab loyiha ishlab chiqadi. Bu esa markazlashgan tizimda ko‘pincha cheklangan bo‘lishi mumkin. Salbiy jihati sifatida, DXSh bo‘yicha siyosat va tartiblarning bir-biridan farqlanishini keltirishimiz mumkin. Masalan har bir shtat/land DXSh bo‘yicha o‘z qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu esa DXSh bo‘yicha yagona yondashuvni qiyinlashtiradi va investorlar uchun noaniqlik tug‘dirishi mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar hukumatlarining DXSh bo‘yicha vakolatlari*

Davlat	Vakolatli hukumat darajasi	Maxsus DXSh instituti mavjudligi	Davlat sherigini belgilash mexanizmi	DXSh loyihalarini muvofiqlashtirish roli	Qonunchilik asosida yagona siyosat
AQSh	Federal va shtat darajasida bo‘linadi	Har bir shtatda davlat-xususiy sheriklik bo‘limlari mavjud	Har bir shtat o‘z qonunchiligiga ko‘ra belgilanadi	AQSh Transport departamenti muhim rol o‘ynaydi	Har shtatda alohida, yagona federal qonun yo‘q
Kanada	Federal, provinsiya va mahalliy hukumatlar	“PPP Kanada” kompaniyasi (2009–2018) mavjud bo‘lgan	Viloyat yoki federal hukumat vakolati asosida	Kanada infratuzilmasi vazirligi – markaziy muvofiqlashtiruvchi organ	2009 yildan boshlab yagona DXSh siyosati ishlab chiqilgan
Buyuk Britaniya	Markaziy hukumat	Infratuzilma va loyihalar bo‘yicha boshqarmasi	Agar noaniqlik bo‘lsa, Buyuk Britaniya G‘aznachiligi yakuniy qarorni qabul qiladi	IPA va Moliya vazirligi muvofiqlashtiradi	Yagona siyosat va baholash metodologiyasi mavjud
Fransiya	Markaziy hukumat	Davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash missiyasi (MAPPP) mavjud edi, hozirda esa Davlat-xususiy sheriklik bo‘limi (INFRAPPP)	Davlat sherigi tegishli vazirlik tomonidan belgilanadi	Moliya va Iqtisodiyot vazirligi loyihalarni tahlil qiladi	Aniq qonunchilik asosida yuritiladi
Germaniya	Federativ tizimda – federal va landlar bo‘yicha	Germaniya sherikliklari maslahat (kosalting) instituti mavjud	Har bir loyiha bo‘yicha alohida tartib amal qiladi	Transport, sog‘liqni saqlash va moliya vazirliklari hamkorlikda	Erkin yondashuv
Italiya	Markaziy hukumat orqali – Moliya va iqtisod vazirligi	DXSh qonunchiligi mavjud	Iqtisodiyot va moliya vazirligi va mahalliy hokimiyatlar o‘zaro kelishuv asosida belgilaydi	Milliy korrupsiyaga qarshi agentlik muhim rol o‘ynaydi	DXShni tartibga soluvchi yagona qonun mavjud
Yaponiya	Markaziy hukumat Maxalliy infratuzilma, transport vazirligi (MITV)	Xususiy moliyalashtirish tashabbusi mavjud	Yaponiyaning Yer, infratuzilma, transport va turizm vazirligi tomonidan belgilangan tartib asosida	Yer, infratuzilma, transport va turizm vazirligi loyihalarni baholaydi va muvofiqlashtiradi	Xususiy moliyalashtirish tashabbusi qonuni asosida

*Muallif tomonidan tayyorlandi.

DXSh munosabatlarini rivojlantirishda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri xalqaro amaliyotda DXSh munosabatlarini rivojlanishi ko‘p yillik boy tajribaga ega bo‘lsa, DXSh amaliyotga joriy etishning boy zamonaviy vositalar va usullardan foydalanilishi hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik xorijiy





mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish xususiy investitsiyalarni jalb qilish va aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu esa davlat xizmatlarining samaradorligini oshirishni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish ayrim mamlakatlarda alohida xususiyatga ega bo'lib, ya'ni iqtisodiyotni rivojlanish darajasi, biznes muhiti, siyosiy holat, huquqiy tizimi, iqtisodiy va siyosiy muhitiga bog'liq holda shakllanadi. Shuningdek DXSh jamoat infratuzilmasini rivojlantirishda alohida model sifatida potensial ahamiyatga ega hisoblanadi.

Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bir qator institutsional va iqtisodiy omillarga bog'liqdir. Xususan, iqtisodiyotga davlatning oqilona va muvozanatli aralashuvi, mulkchilik munosabatlarining huquqiy jihatdan mustahkamligi, investitsion muhitning barqarorligi hamda xalqaro kapital bozorlaridan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarining kengligi DXSh loyihalarining samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda davlat infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohasida strategik yo'nalishlarni belgilab bersa, xususiy sektor moliyalashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali loyihalarning iqtisodiy natijadorligini ta'minlaydi.

DXSh bo'yicha xalqaro amaliyot tajribalari haqida gap ketkanda Buyuk Britaniya tajribasini alohida e'tirof etish lozim. Buyuk Britaniya davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish darajasi bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Ushbu davlatda 1990 yillardan boshlab ilk bor davlat-xususiy sheriklik usuli keng tarzda interpretatsiya qilingan bo'lib, jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli samarali hamkorlikni nazarda tutadi. Ushbu dastur “Xususiy sektorni moliyalashtirish tashabbusi” (“Private Finance Initiative” - PFI”) deb nomlanib, jamoat infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirish usuli sifatida taklif etilgan. Mazkur loyihaga muvofiq xususiy sektor o'z zimmasiga ob'ektlarni uzoq muddatli davr mobaynida foydalanish, ekspluatatsiya qilish, qurilish, loyihalash va texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini o'z zimmasiga olishi belgilangan. DXSh munosabatlari bo'yicha jahonda Fransiya yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Fransiya respublikasi DXSh bo'yicha boy tajribalarni dunyo amaliyotida keng tarqalishida alohida o'ringa ega. Fransiyada XIX-asrda temir yo'l tarmog'ini rivojlantirishdan tortib, yo'llar, ko'priklar, aeroportlar, litseylar, shifoxonalar qurish va ulardan foydalanish kabi zamonaviy loyihalargacha bo'lgan DXSh loyihalari bo'yicha ko'p yillik tarixga ega. Fransiyada DXShning muhim xususiyatlaridan biri aholi uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va ommabopligini ta'minlash, tabiiy resurslar va muhim ijtimoiy funksiyalarni xususiy sektorga berishning (konsessiyalarning) salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan davlat tomonidan qattiq tartibga solish va nazorat qilishdir. Fransiyada DXSh bo'yicha qonunchilik hujjatlari Yevropa direktivalari va milliy qadriyatlar, manfaatlarga muvofiq rivojlanmoqda.

Fransiya davlat-xususiy sheriklikning boy an'analari ega bo'lib, jumladan, “Aralash iqtisodiyot jamiyatlari (Société d'Économie Mixte - SEM) va koncessiya shartnomalari orqali amalga oshiriladi.

Société d'Économie Mixte (SEM) - bu kompaniyalar davlat va xususiy kapitalning hamkorligiga asoslangan bo'lib, tijorat va ijtimoiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi. SEMlar mahalliy hokimiyatlar yoki boshqa davlat organlari tomonidan tashkil etilib, quyidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni amalga oshiradi: transport tarmoqlari, turar-joy hududlari, bog'lar, turizm ob'ektlari va boshqa infratuzilma loyihalari.

2022-yilda, COVID-19 pandemiyasining Fransiya iqtisodiyotiga ta'siridan tashqari, Rossiya va Ukraina o'rtasida yuz bergan geosiyosiy mojaro Yevropa Ittifoqini davlat-xususiy hamkorlikni ushbu mojarodan ajratib olishga qaratilgan global strategiyani ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi desak bo'ladi. Shu munosabat bilan Kengashning 2022/576-sonli qarori qabul qilinib, hujjatga ko'ra davlat buyurtmachilari amaldagi konsessiya shartnomalarini bekor qilib, ularga Rossiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy operatorlar bilan yangi shartnomalar tuzishga ruxsat berilmasligi alohida belgilab qo'yildi. Buyuk Britaniya va Fransiya tajribalari asosida






davlat-xususiy sheriklik loyihasi jarayonining asosiy bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin deb hisoblaymiz (1-rasm). DXSh bo‘yicha boy amaliyot tajribasiga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri Germaniya hisoblanadi. Germaniya kuchli iqtisodiy rivojlangan va moliyaviy barqaror xususiy sektorlarga ega rivojlangan davlat sifatida infratuzilma va davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yaxshilash uchun DXShlardan faol foydalanib kelmoqda. Germaniyada DXShning alohida afzalliklari sifatida, loyihalar samaradorligi va sifatini oshirish uchun ma‘lum bir malaka va tajribaga ega bo‘lgan xususiy sektorni jalb etishga ustuvorlik berilishi hisoblanadi.

1-rasm.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi jarayonining asosiy bosqichlari*



*Muallif tomonidan tayyorlandi

Shuningdek, DXShlar davlat budjeti yukini kamaytirishi va risklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi. Ta’kidlash kerakki, Germaniyada DXSh loyihalarni amalga oshirish dastlab kooperativ qurilishda foydalanilgan. Dastlabki notijorat qurilish jamiyatlari XIX-asr o‘rtalarida xususiy investitsiyalar asosida tuzilgan. O‘z navbatida notijorat kompaniyalar davlat sektori bilan hamkorlik natijasida o‘z bizneslari va foyda olish siyosatiga ba’zi cheklovlar qo‘yishga majbur bo‘lgan. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda davlat





tomonidan soliq va boshqa turdagi imtiyozlar taqdim etilgan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Germaniyada davlat va xususiy sheriklik manfaatlarini uyg'unlashtirishning samarali modeli Frankfurt-na-Mayndagi eng yirik aeroportini rekonstruksiya qilish loyihasidir. O'z navbatida Germaniyada DXSh bo'yicha qator muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilgan bo'lsada, ayrimlari bo'yicha kutilgan natijalarga erishilmaganligi tadqiqotlardan ma'lum bo'ldi. Germaniyada DXSh loyihalari turli usullar yordamida tuzilishi mumkin. Jamoat binolari (masalan, shifoxonalar, maktablar yoki ma'muriy binolar) qurilishiga kelsak, davlat organlari aksariyat holatlarda mulk huquqini saqlab qolishni va faqat davlat ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binoni qurish, foydalanish yoki boshqarish huquqini xususiy investorga topshirishni xohlaydi. Huquqiy nuqtai nazardan, xususiy investor mulkka egalik huquqini qo'lga kiritishi va mulkni davlat organiga qayta topshirishi yoki belgilangan muddat oxirida mulkdor bo'lib qolishi ham mumkin. Davlat organlari hususiy investorlarga loyihalar bo'yicha konsessiya taqdim etishi mumkin. Davlat shartnomalari va konsessiyalar o'rtasidagi asosiy farq pudratchiga beriladigan to'lovlarning (mukofotning) turida hisoblanadi.

Xulosa

Xalqaro amaliyot tajribasi ko'rsatishicha, davlat-xususiy sheriklik investitsion faollikni oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada hamda Avstraliya tajribasida yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'rtasida risklarni oqilona taqsimlash, innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Mazkur tajribalar davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, loyiha xarajatlarini optimallashtirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bergan.

AQShda davlat-xususiy sheriklik sohasida yagona qonunchilik bazasi mavjud bo'lmasada, biroq DXSh loyihalarini amalga oshirish, ma'lum ob'ektlardan foydalanish va boshqarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi federal qonunlar va normativ hujjatlar mavjud. Shuningdek, alohida shtatlar va munitsipial darajadagi qonunchilik hujjatlari orqali DXSh munosabatlari amalga oshiriladi. Yana bir ye'tiborli jihat, AQShda DXSh faoliyatini tartibga soluvchi va nazoat qiluvchi yagona markazlashgan organ mavjud emas, har bir shtat bunday sheriklik faoliyatini mustaqil ravishda tartibga soladi va nazorat qilib boradi. Masalan, Florida transport departamentida alohida DXSh idorasi mavjud bo'lib, mazkur tashkilot DXSh bo'yicha transport infratuzilmasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi va nazoratni amalga oshiradi. AQShda DXShning loyihalarining ustivor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: transport loyihalar (pulli avtomagistrallar, tranzit va u bilan bog'liq infratuzilma, yo'llarni yoritish va ta'mirlash) portlar va aeroportlar; energetika; ichimlik suvi, oqava inshootlari (barcha turdagi xizmat ko'rsatishlari bilan birga); ijtimoiy infratuzilmalar (fuqarolik markazlari va sud binolari, maktab va universitetlar, telekommunikatsiya va harbiy uy-joylar).

Fransiyada SEM kompaniyalarining DXSh borasidagi faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega: Aralash moliyalashtirish. SEMlar davlat va xususiy investitsiyalarni birlashtiradi. Davlat tashkilotlari aksariyat holatlarda xususiy korxonalar uchun yetarlicha foyda keltirmaydigan (bozordagi muqobil loyihalar bilan solishtirganda) davlat va jamiyat manfaatlariga taaluqli loyihalarga sarmoya kiritadilar; Huquqiy maqom. SEMlar ustun darajada aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi va ularga nisbatan maxsus qonunchilik me'yorlari, ya'ni tashkiliy tuzilishi, funksiyalari va majburiyatlari yuzasidan alohida shartlar talab etiladi; Keng qamrovli faoliyat. SEMlar ko'chmas mulkni boshqarish, madaniy va sport tadbirlarini tashkil qilish kabi sohalarida faoliyat yuritishi mumkin; Davlat nazorati va ishtiroki: Davlat (mahalliy darajada, shuningdek, munitsipalitetlar) odatda SEMlarning nazorat paketi yoki salmoqli ulushini (aksiyalarini) o'zida saqlab qoladi, bu esa davlat tashkilotlariga ularning strategiyasi va faoliyatiga ta'sir o'tkazish huquqini beradi; Ijtimoiy manfaatlariga yo'naltirilganlik: SEMlar faqat foyda olishga yemas, balki hududning infratuzilmasi, aholining yashash sifatini oshirish va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan.





Germaniya qonunchiligiga muvofiq davlat shartnomasi bo‘yicha investor odatda mukofot olsa-da, konsessiya yegasi taqdim yetilgan xizmatlar yoki tovarlardan foydalanish yoki sotish huquqini oladi (masalan, xizmatlarni uchinchi shaxslarga sotish). Germaniyada ushbu turdagi 22000ga yaqin shartnomalar mavjud bo‘lib, odatda munitsipalitetlar va shaharlarda elektr va gaz tarmoqlarini uzatish va ekspluatatsiya (Germaniya energetika qonunining 46(2) bo‘limi) loyihalarini amalga oshirishda foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Raja Roy, Governance of knowledge development in a public-private partnership: NASA’s efforts to design the Space Shuttle//Research Policy, Volume 54, Issue 2, 2025.

3. Simon Hakim, Brian Meehan, Evaluation of public private partnerships in highways//Evaluation and Program Planning, Volume 107, 2024.

4. Yiran Zhang, Role of green finance, green bonds, public private partnership, and technology innovation in carbon neutrality and sustainable development//Heliyon, Volume 10, Issue 18, 2024.

5. Иоганзен Е.Н., Шнайдер О.В., Баранцева А.А. Анализ возможностей деятельности государственно-частного партнерства в Российской Федерации//Региональная и отраслевая экономика. Экономические науки, 2024 №7(236).

6. Зубаха П.А. Основные формы государственно-частного партнерства и их применение в инфраструктурных проектах// Вестник МФЮА № 3 / 2017.

7. Xadjayeva Yu. Davlat-hususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishning mohiyati, iqtisodiy ahamiyati va xususiyatlari// Jamiyat va innovatsiyalar – Society and innovations Special Issue – 4 (2021) / ISSN 2181-1415.

8. Toxirov J.R. Davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish va rivojlantirishning prinsiplari va ularning ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil.

9. Delmon J. Public Private Partnership Projects in Infrastructure: An Essential Guide (Updated Ed.) Cambridge University Press, 2024, p: 50-135

